

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA, INNOVATSION USUL VA O‘YINLAR

Hojiboyeva Barnoxon

*Andijon viloyati Andijon tumani 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ona tili va adabiyot darslarida pedagogik texnologiya, innovatsion usul va o‘yinlar haqida yoritilgan bo‘lib, unda interfaol usullar, ularning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: yosh avlodni zamonaviy usullar, innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali tarbiyalashning samarasini ilmiy mavzular asosida ko‘rsatib berish.

Usul va o‘yinlar: “Qay biri to‘g‘ri?”, “Kim hakam”, “Taqdimot-tadqiqot”, “Piramida”, “Orzular daraxti”, Hikmatlar sandig‘i”...

Natija: O‘quvchilarning ona tili va adabiyot fani bo‘yicha o‘rgangan bilimlarini rivojlantirish va nutqini o‘stirish.

Kalit so‘zlar: ona tili va adabiyot, innovatsion usul, izlanish, nutq o‘stirish, erkin fikrlash, umumlashtirish, xulosa chiqarish...

Pedagogical technology, innovative methods and games in mother tongue and literature classes

Abstract: This scientific article covers pedagogical technology, innovative methods and games in the classes of mother tongue and literature, and it talks about interactive methods and their importance.

The purpose of writing this article is to show the effectiveness of educating the young generation through modern methods and innovative pedagogical technologies based on scientific topics.

Methods and games: "Which one is right?", "Who is the judge", "Presentation-research", "Pyramid", "Tree of dreams", Box of Proverbs...

Result: To develop the students' knowledge of the native language and literature and to improve their speech.

Key words: native language and literature, innovative method, research, speech development, free thinking, generalization, conclusion..

Педагогические технологии, инновационные методы и игры на уроках родного языка и литературы

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются педагогические технологии, инновационные методы и игры на занятиях родным языком и литературой, рассказывается об интерактивных методах и их значении.

Цель написания данной статьи – показать эффективность воспитания молодого поколения с помощью современных методов и инновационных педагогических технологий, основанных на научной тематике.

Методики и игры: «Кто из них прав?», «Кто судья», «Презентация-исследование», «Пирамида», «Дерево снов», «Ящик пословиц...»

Результат: Развить знания учащихся по родному языку и литературе, улучшить их речь.

Ключевые слова: родной язык и литература, инновационный метод, исследование, развитие речи, свободомысление, обобщение, вывод...

Hozirgi kunda boshqa fanlar qatori ona tili va adabiyoti o‘qitish metodikasida ham yangi texnologiyalarni qo‘llash va interfaol usullardan foydalanish davr talabidir. Pedagogik texnologiya o‘quvchini mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Bu jarayonda o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o‘rganadi, o‘zlashtiradi. Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu faoliyat boshqa hamma faoliyatlarga xos bo‘lgan belgilarga ega bo‘lib, avvalo, jarayon ko‘rinishida amalga oshiriladi va shu ko‘rinishda mavjud bo’ladi. Shu bilan birga, bu jarayon o‘ziga xos qonuniyatlarga ega bo‘lib, bu qonuniyatlarni insoniyat tomonidan o‘rganish davom etmoqda. Xo‘s, pedagogik texnologiya nima? Uning ta’limdagi o‘rni va ahamiyati qanday?

Pedagogik texnologiya - hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Uni pedagogikaning hozirgacha mavjud bo'lgan hamda takomillashib kelayotgan barcha asosiy yo'naliishlari bo'yicha amaliy vazifalarni yanada yuqoriqoq darajada amalga oshirish yo'lidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin. Ta'lim jarayoni rivojlanib borayotgan bir davrda elektron o'quv-metodik qo'llanmalarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu borada o'qituvchining asosiy qo'llanmasi – ona tili darsliklarini modernizatsiya qilish lozim.. O'quv-metodik majmualar, elektron ta'lim resurslari holati bo'yicha tahlillar ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash imkonini berdi. Shubhasiz, ona tili fani millat tarbiyasi va kamolotida muhim o'rin tutishini inobatga olsak, o'quv-metodik majmualarning asosiy qismlari ona tilini o'qitishning aniq metodik konsepsiysi va uni amalga oshirishning samarali usullarini o'z ichiga olishi, ilmiy-texnik yutuqlarga muvofiq bo'lishi, zamon ruhini aks ettirishi zarur. Bugungi kun o'qituvchisi o'quvchilarni fanga qiziqtira olishi uchun innovatsion metodlardan foydalanishi juda muhim. Jumladan, o'quvchilarni topqir, o'tkir zehnli, savodxon qilib voyaga yetkazishda didaktik o'yinlarning ahamiyati katta. Darsda didaktik o'yin o'tkazilishi orqali o'quvchi ruhiyatida ijobiy o'zgarish sodir bo'ladi va bu o'yinni ular zo'r mammuniyat bilan ijro etadi. Ayniqsa, tajriba maqsadida o'tkazilgan quyidagi usullar muhim ahamiyat kasb etadi:

“Qay biri to‘g‘ri?” usuli. Bu usul muhokamali lug‘at diktant Xaykal-haykal, xuriyat- hurriyat , polapon- palapon, shavqat-shafqat, xayr sadaqa-xayr-sadaqa, qat’iy nazar- qat’i nazar, sentyabr-sentabr .

O'quvchilar slayd orqali ko'rsatilgan lug‘atdan so‘zlarni taqqoslab, to‘g‘ri deb topgan variantini izohlashadi, agar noto‘g‘ri bo‘lsa xatosini anglaydi, daftarga to‘g‘ri so‘zlarni ko‘chirib yozishadi. Bu usul orqali o'quvchi xatoni qayta takrorlamaydi.

“Kim hakam” usuli. Bu usulni o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida “Kim hakam” foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilardan diqqat, tezkorlik, hozirjavoblik talab etiladi, O'quvchi fikrini jamlashga harakat qiladi.O'qituvchi tomonidan ma'lumotlar tezkorlik bilan o'qiladi. Bunda har bir guruh a'zolari to‘g‘ri ma'lumotlar uchun- “qizil kartochka”, noto‘g‘ri ma'lumotlar uchun-“sariq kartochka”larini ko'tarishadi. Natijalarni aniqlab borish uchun har bir guruhga nazoratchilar biriktiriladi.¹

“Taqdimot-tadqiqot” usuli. Bu bosqichda har bir guruhdan bir nafar o’quvchi yangi mavzu va yangi mavzuni o’tilgan mavzular bilan bog’lash maqsadida doskada taqdimot qilishadi. O’qituvchi tomonidan yangi mavzu bo’yicha qo’shimcha ma’lumotlar berib o’tiladi.

“HIKMATLAR SANDIG‘I” INTERFAOL O‘YINI

Avval o‘yla, keyin so‘yla.

**Erta turgan kishini ,
Xudo o‘nglar ishini .**



**Avval o‘z aybingni bil,
Keyin boshqalarga kul.**



Ertalabki ishingni kechga qoldima.

1. Tolipov O’, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyat. T- Fan, 2005-yil, 205- b.

“Piramida” o‘yini. Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Piramida” o‘yini olib boriladi. Bunda To’rtala guruhgaga alohida mavzular beriladi, guruh a’zolari berilgan mavzu bo’yicha barcha ma’lumotlarni maxsus kartochkalarga yozishadi va piramida tasvirlangan ko’rgazmaga yopishtirib chiqadilar. Natijalar tekshiriladi noto’g’ri va takrorlangan ma’lumotlar olib tashlanadi va qolgan natijalar hisoblanadi. Eng ko’p ma’lumot yozgan guruhlardan taqdirlanadi. Bunda o’quvchilar o’tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo’yicha tushunchalarni o’zlashtirib olganlik darajasi aniqlash, o’z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish , o’zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o’z bilimlarini bir tizimga solishga o’rgatadi.

“Orzular daraxti” usuli orqali o’quvchilarga motivatsiya berish va rag’batlantirish mumkin. Baholash mezoni va usuli sifatida daraxt rasmi tarqatiladi. Uni o’quvchilar tilaklar yozilgan tarqatmalar bilan” sug’orib” boradilar va dars so’ngida o’qituvchi shu asosida o’quvchilarni baholaydi. Daraxt yashnashi uchun suv va quyosh zarur bo’lganidek, inson kamoloti uchun ham ezgu tilak va fazilatlar zarurligi o’qituvchi tomonidan ta’kidlanadi.

Xullas, hozirgi kun o’qituvchisi ta’lim berayotgan bosqichdagi bitiruvchilarga DTS fan yuzasidan qo'yiladigan talablarni yaxshi bilishi va ta’lim jarayonini shunga yo'naltirishi, ya'ni mavzular, modullarni shu talablardan kelib chiqib loyihalashtirishi kerak bo'ladi. Innovatsion metodlar esa o’quvchilarning savodxon bo‘lishiga, DTS talablariga qo‘yilgan bilim va ko‘nikmalarni oson va qiziqarli egallahshlarida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili o’qitish metodikasi. Mamatov. G.A. Boqiyeva.X.S. Masharipov.U Toshkent-2014-yil.
2. Ona tili o’qitish metodikasi . Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G’ulomova, Sharofat Yo’ldasheva Sharofjon Sariyeva. Toshkent-2009-yil.
3. Tolipov O’, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T-Fan, 2005-yil, 205- b.